

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI ONA TILI BILAN INTEGRALLASHNING SAMARALI YO'LLARI VA METODLARI

*Shabonova Shaxnoza Baxriddinovna, Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs
doktoranti shabonovashaxnoza@buxdupi.uz*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini ona tili bilan integrallab o'rgatish yo'llari haqida ma'lumot berildi va bir necha samarali yo'llari va metodlariga misollar ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, integratsiya jarayonida "Say the next one", "Flashcards", "Interpreters and journalists" kabi metodlardan foydalanish va ularning chet tilini o'rgatishdagi ijobiy xususiyatlari tadqiqotlar natijasida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, flesh-kartalar, metod, integratsion yondashuv, chet tili, ona tili, leksik birliklar, o'qish, tinglash.

EFFECTIVE WAYS AND METHODS OF INTEGRATION OF ENGLISH WITH MOTHER LANGUAGE FOR PRIMARY CLASS STUDENTS

*Shabonova Shakhnoza Baxriddinovna, 1st year doctoral student of Bukhara State
Pedagogical Institute, shabonovashaxnoza@buxdupi.uz*

Abstract. This scientific article provides information on ways to integrate English with the mother tongue of elementary school students and shows examples of several effective ways and methods. Furthermore, in the process of integration, methods such as "Say the next one", "Flashcards", and "Interpreters and journalists" and their advantages in teaching a foreign language were mentioned as a result of research.

Keywords: integration, flashcards, method, integrative approach, foreign language, native language, lexical units, reading, listening.

ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ И МЕТОДЫ ИНТЕГРАЦИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА С РОДНЫМ ЯЗЫКОМ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Шабонова Шахноза Бахриддиновна, докторант 1 курса Бухарского
государственного педагогического института, shabonovashaxnoza@buxdupi.uz*

Аннотация. В этой научной статье представлена информация о способах интеграции английского языка с родным языком для учащихся начальной школы и показаны примеры нескольких эффективных способов и методов. Также в процессе интеграции в результате исследования было отмечено использование таких методов, как «Скажи следующий», «Карточки», «Переводчики и журналисты» и их положительные особенности при обучении иностранному языку.

Ключевые слова: интеграция, карточки, метод, интегративный подход, иностранный язык, родной язык, лексические единицы, чтение, аудирование.

Kirish

Jadal rivojlanib borayotgan yurtimizda xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish, o'quvchi yoshlarning xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha chuqur ko'nikma va malakaga ega bo'lishi davlat siyosatidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, chet tili o'rgatishning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida yosh doirasining

qisqarish jarayoni ommalashib bormoqda. Bu jarayonga "the younger the better" tushunchasini keng doirada amaliyotda qo'llash natijasida kichik yoshdagi bolalar kattalarga qaraganda oson va tez samaraga erishishi mumkinligi o'z isbotini topmoqda. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'zaro farqalanadi. "Yangilik"- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. "Innovatsiya"- bu ta'lim, ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlanib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ilm dunyomizga ilg'or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Mustaqillik sharofati tufayli boshlang'ich sinflarda ingliz tili fanining o'ziga xos va mos mazmuni va tizimini yaratishga erishildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga endi chet tilini o'z ona tilisi bilan qiyoslab, taqqoslab, integrallashtirib o'rgatish o'qituvchidan katta mehnat va ma'suliyat talab qiladi. Chunki bola bu yoshda o'z ona tilisini endi o'rganishni boshlagan bo'ladi. O'quvchilar chet tilida o'rganayotgan fonetik, leksik va grammatik belgilar va tushunchalar o'z ona tilisida ham bo'lsa hech qanday qiyinchiliklarsiz o'rganadi. Ammo ushbu tushunchalar doirasida nomutanosiblik bo'lsa ya'ni o'xshash jihatlar bo'lmasa bolalarda chet tilini o'rganishda qiyinchilik yuzaga keladi. Ona tilidan foydalanish ko'plab o'quvchilar uchun motivatsiya bo'lib xizmat qiladi. Martin (2001) ta'kidlashicha "Ona tili yangi tilning turli xil jarayonlarini o'rganish uchun asosiy rolni o'ynaydi". Ushbu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlari bo'lib, bir tomondan ona tilidan foydalanish o'quvchilarga chet tilini o'rganishga osonlik tug'dirsa, boshqa tarafdin olib qaraganda o'quvchilarda dangasalik hissi paydo bo'lib chet tilini o'rganishga intilishlari susayishi mumkin. Kavaliauskiene (2009) ning ta'kidlashicha esa tarjimani kasbiy mahorat sifatida qo'llash bilan ona tilini chet tilini o'qitish jarayonida foydalanish tushunchalarini farqlash lozim. Ushbu jarayonda integratsiya tushunchasiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlab, integratsiya xorijiy til va ona tili o'rtasidagi kombinatsiyaning natijasidir deb ta'rif bergan. Integratsiya tushunchasini qo'llash sifat va samaraga erishish uchun yo'l ochib beribgina qolmay, jarayinning birmuncha tezlashishiga ham sabab bo'ladi.

Integratsiya lotincha "integration" tiklash degan ma'noni anglatib, "integer" butun so'zidan kelib chiqqan. Ta'lim mazmunini integratsiyalash dunyo tendensiyalaridandir. Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi. Integratsiya ilgari bo'lgan qismlarni bir butunga joylashtirishdir. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Dars jarayonida o'quvchilarning bilim olishi, albatta, o'qituvchining bilimi, ijodkorligini, izlanuvchanligi, tayyorgarligiga bog'liq. Bilimli bo'lish bilan birga ijodkor bo'lish zamon talabi chunki texnika rivojlangan davrda yashamoqdamizki, o'quvchilar juda ilgarilab ketmoqda. Shu o'rinda o'qituvchi har bir darsini yangiliklar bilan turli xil metodlardan foydalangan holda olib borishi darsning samaradorligiga kafil bo'ladi. Izlanishlarimiz natijasida bir nechta metod va usullarni sizga ham tavsiya etmoqchimiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini ona tili bilan integrallashtirishning samarali yo'llari va metodlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

Bog'liqlik. O'quvchilarga ikki tilga bog'liq mavzularni o'rganishlariga yordam berish. Masalan, o'quvchilarning o'z oilalariga, do'stlariga, maktab doirasida o'tgan voqea va holatlarga oid gapirishlarini o'rganish umuman yod bo'lgan tushunchalarni

o'rganishdan ko'ra osonroq hisoblanadi. Shundan hodisalarni nazarda tutgan holatda chet tilini o'rgatish samaraliroq va manfaatliroq bo'ladi.

So'zlar va ibora banki. O'quvchilar uchun foydali so'zlar va iboralar bankini yaratish. Bu o'quvchilarning o'zlarining fikrlarini bayon etishlarini yaxshilaydi va ularni o'z fikrlarini ifodalashlari uchun muntazam vaqt ajratishga yordam beradi.

O'qish va tinglash. Ingliz tilini o'rganishda, o'quvchilarga tezkor tarjimalar va tinglovchi amallar kiritishga yordam berish. Masalan, qisqa romanlar, darsliklar yoki qiziqarli dasturlar orqali o'quvchilarga ingliz tilini foydalanish bilan bog'liq muammolarni, kelgusida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va xatoliklarni oldini olishi mumkin.

Interaktiv darslar. Interaktiv darslar va o'yinlar orqali o'quvchilarni ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va samarali darslar tashkil qilish mumkin. Bu kabi qiziqarli darslar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi mumkin.

Munozara va guruh ishi. O'quvchilarning ingliz tilidagi bilimlarini mustahkamlash uchun munozaralar va guruh ishlarini o'tkazish. Ular o'z fikrlarini boshqalar bilan ulashish va ingliz tilidan foydalangan holda bilimlarini ifodalashlari uchun imkoniyat yaratadi.

Multimedia materiallar. Multimedia materiallar, masalan, video darslar, audiodarslar, va interaktiv ilovlar, o'quvchilarga turli usullar orqali ingliz tilini o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Real hayot uyg'unligi. O'quvchilarga ingliz tilini o'rganishda real hayot uyg'unligini taqdim etish. Masalan, o'quvchilar uchun maqolalar, video va audiomateriyallar orqali har kuni turli matbuotlar, radio va televizor dasturlarini o'rganishlariga yordam berish. Bu kabi metodlar ingliz tilini o'rganishga o'quvchilarga juda katta yordamchi bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchi bir-biridan farqli ravishda turli xil o'rganish usuli va metodlariga moslashishi mumkinligini unutmagan holatda ushbu ta'lim usullaridan foydalanish integrallashtirish jarayoni uchun samarali xizmat qiladi desak adashmaymiz.

Bu integrallashtirishning bir necha muhim foydali xususiyatlari mavjud:

1. Kommunikatsiya va muloqotni rivojlantirish: O'zbek o'quvchilari ingliz tilini amaliy ravishda o'rganish orqali, fikrlarini ingliz tilida ifodalash va muloqot qilish qobiliyatlarini mustahkamlashlari mumkin.

2. Xalqaro aloqalar va ish imkoniyatlari: Ingliz tili dunyo bo'ylab kommunikatsiyada ko'p o'rganilgan tillardan biridir, shuning uchun O'zbekistondagi o'quvchilar uchun ingliz tili o'rganishi, xalqaro ish bozoridagi muvaffaqiyat uchun katta afzallikdir.

3. Texnologik rivojlanish: Bugungi kunda, ko'plab texnologik resurslar (masalan, internet, elektron kutubxona, veb-saytlar) ingliz tilida mavjud bo'lib, shuning uchun o'zbek tilini ingliz tiliga integrallashtirish o'quvchilarga texnologik ko'nikmalar bilan tanishishda yordam beradi.

4. Tarixiy ma'lumotlar va mafkuralar: Ko'plab zamonaviy fanlar, masalan, ilmiy tadqiqotlar, akademik maqolalar va h.k., ingliz tilida yaratiladi. O'zbek o'quvchilari uchun bu matnlar bilan tanishish, ularga yangi fikrlar va g'oyalar olishda yordam beradi.

Bunday integrallashtirishlar, o'zbek tilini ingliz tilida o'rganish uchun maqsadga muvofiq ta'lim resurslari, pedagogik usullar va dasturlar ishlab chiqishni talab etadi. Bundan tashqari, o'quvchilari va o'qituvchilar o'rtasida aloqani mustahkamlash,

motivatsiyani oshirish va ingliz tilini o'rganishni kuchaytirish maqsadida to'g'ri o'qitishning ham muhim ahamiyati bor.

Ta'lim sistemasini ya'ni ingliz tili bilan ona tilini integrallashtirishning o'ziga xos muhim jihatlari mavjud. Avvalo o'quvchi ingliz tilida gap strukturasi tuzilishini o'rganishni boshlasa o'z ona tilidagi gap tuzilishiga ham beixtiyor ahamiyat berishni boshlaydi. Ikkinchidan tillarni bir biriga o'zaro bog'lash o'quvchilarda kuchli motivatsiya uyg'otadi va ikkala fanga nisbatan qiziqishi ortadi. Tillarni o'qitishda turli zamonaviy metodlar va innovatsiyalarni qo'llash esa o'quvchilar ongida tushuncha hosil qilibgina qolmay, uni mustahkam egallashga ham yordam beradi.

Bir qator tadqiqotchilar, o'zbek tilini va ingliz tilini integrallashtirishning O'zbekistonda ingliz tili o'rgatish metodologiyasini rivojlantirishga yordam berishi, ingliz tili bilan bog'liq texnologiyalardan, tahliliy pedagogik modellardan va boshqa innovatsion usullardan foydalanishni tavsiya qilishadi. Bu, o'zbek tili va ingliz tili bilan integrallashtirilgan darslar va o'quv metodlarini amalga oshirish va o'qituvchilarning va o'quvchilarining ixtisoslashtirilgan o'qitish usullari bilan tanishliklarini oshirish uchun muhimdir.

Quyida havola etmoqchi bo'lgan metodlarimiz ham ushbu integratsion yondashuvga namuna bo'la oladi.

Metodlar va tadqiqot natijalari.

1. Ingliz tilida yil fasllari, oy va hafta nomlarini o'rgatishda

foydalansa bo'ladigan ushbu metod **"Say the next one"** deb nomalanadi. Mashg'ulot uchun koptokcha kerak bo'ladi va quyidagi tartibda olib boriladi. Bunda o'quvchilar aylana shaklida turishadi va o'qituvchi koptokchani ushlab yil fasllari, oy yoki hafta nomlaridan birini ingliz tilida aytadi va koptokni o'quvchilarning biriga ulotqiradi. Koptok yetib borgan o'quvchi ayilgan yil fasllari, oy yoki hafta nomlaridan keyingisini o'zbek tilida aytishi kerak bo'ladi. Masalan:

- O'qituvchi: "January", o'quvchi: Fevral;
- O'qituvchi: "Tuesday", o'quvchi: "Chorshanba"
- O'qituvchi: "Spring", o'quvchi: "Yoz" deyishadi.

O'yin shu tartibda davom ettiriladi. Bu usulni aks holatda ham tashkil ettirish mumkin, ya'ni o'qituvchi o'zbek tilida aytgan so'zning keyingisini o'quvchi ingliz tilida aytishi kerak bo'ladi.

Integratsion yondashuv: Ushbu metod chet tilidagi so'zlarni tezda o'rganishga yordam beribgina qolmay, balki o'quvchida tezkor fikrlash, chaqqonlik va ziyraklik ko'nikmalarini ham shakllantirishga yordam beradi.

2. Keyingi keng tarqalgan metod "Flashcards" deb nomalanadi.

Flesh-karta ma'lumotlarni asosan lug'atlarni yodlab olish uchun mo'ljallangan kartochkalar bo'lib, ular o'quvchilarga rasmlar va so'zlar orqali eslab qolishga yordam beruvchi usul hisoblanadi. O'qituvchi hohlagan mavzudagi lug'atlarni doskaga yopishtiradi va orqasiga ushbu so'zlarning tarjimasini yozadi. O'quvchiga rasm, tovush yoki so'zlar orqali savol berilganda, ulardan javob shu tarzda talab qilinadi. Masalan: mevalar mavzusidagi kartalar doskaga rasm va so'zning ingliz tilidagi varianti bilan yopishtiriladi va orqa tarafiga ushbu so'zlarning tarjimasi yoziladi. (Rasm1) O'quvchilar so'zlarni tarjimasi yordamida yod olishadi va keyingi o'rinlarda o'zlari mistaqil ravishda eslab qolib ushbu so'zlardan foydalanishadi. Darslarda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanishdan asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarning mavzuni o'rganishlarida ularning diqqatini to'plash, darsga bo'lgan qiziqishlarini

o'shish, o'zlariga bo'lgan ishonchni uyg'otish hamda ko'rgazmalilik va tarqatmalilik asosida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat. Mavzuni o'rganishda tarqatmali materiallardan foydalanishning muhim ijobiy tomoni shundaki, u bevosita ta'lim oluvchining qo'lida bo'ladi. Tarqatmali materiallar ta'lim oluvchilar uchun o'rganilgan va o'rganilayotgan mavzuga oid axborot va topshiriq beruvchi hamda nazorat qiluvchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. U ta'lim oluvchilar qo'lga mo'ljallangan bo'lib, uning hajmi va shakli uncha katta bo'lmagan yozma o'quv materiali hisoblanadi.



Rasm 1

Integratsion yondashuv: Kartochkalar o'quvchilar uchun foydalanishga qulay va oson bo'lgan manbalardan hisoblanib, lug'atlarni tanishtirishda, amaliyotda qo'llashda va takrorlashda ajoyib usul bo'lib xizmat qiladi. Ushbu metod o'quvchilar mustaqil va kichik guruhlarda ishlashlari uchun ham foydali usul hisoblanadi. Ayniqsa bu usuldan bolalar uyda ota-onalari, bobo-buvilari bilan ham foydalana olishadi. Shuningdek, kartochkalarni istalgan til va istalgan mavzuni o'rganish uchun moslashtirish mumkin. Ularni istalgan joyda: hohlasangiz sinf xonasida, avtobusda, uyda, hattoki ko'chada ham foydalanish mumkin. Eng asosiysi olib yurishga va o'rganishga qulay vosita hisoblanadi. O'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beruvchi ushbu usul, sinfda tengdoshlaridan ortda qolayotgan bolalarga ham yordam beradi.

3. **"Interpreters and journalists"** deb nomlangan ushbu metoddan nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun balki yuqori sinf o'quvchilariga ham moslashtirsa bo'ladigan integratsiyalashgan usul hisoblanadi. Ushbu metodda o'quvchilar uch kishilik kichik guruhlarda ishlashadi. Birinchi o'quvchi jurnalist, ikkinchisi esa intervyu beradigan chet ellik fuqaro va uchinchi o'quvchi esa tarjimon rollarini bajarishadi. Tarjimon jurnalistning savollarini ingliz tiliga tarjima qiladi, chet ellikning javoblarini esa o'zbek tiliga tarjima qilib beradi. Ushbu metod bir nechta intervyu beruvchi o'quvchilar o'rtasida tashkil qilinadi. Chet ellik fuqaro taniqli kino yulduzi, jahon chempioni, siyosatchi yoki bir mashhur qo'shiqchi rollarini o'ynashi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga oddiy sodda gaplardan iborat dialoglar tuzdirilsa, yuqori sinf o'quvchilariga esa qo'shma gaplardan tashkil topgan murakkab gaplardan foydalanilsa bo'ladi.

Integratsion yondashuv. Sinfda o'zgacha muhitni paydo qiladigan ushbu metodning bir necha ijobiy taraflari mavjud. Avvalo o'quvchilar o'rtasida real dunyo voqealarini sahnalashtirish orqali chet tilini o'rgatish ularga katta motivatsiya beradi. Hamkorlikda, kichik guruhlarda ishlash o'quvchilar orasida bir-birini hurmat qilish, ijodkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ba'zi o'quvchilardagi chet tilida muloqot qilishdagi qo'rquv va uyatchanglikni mana shu turdagi rolli o'yinlarni sahnalashtirish orqali yengish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, endigina o'z ona tilisini o'rganayotgan o'quvchi uchun o'zga bir chet tilni o'rganish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni yengillashtirish, ikki tilni bir biriga qiyoslab, taqqoslab o'rgatish chet til o'qituvchising mahoratiga bog'liqdir. Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ingliz tilida asosiy hisoblangan til ko'nikmalari yani o'qish, eshitish, yozish, gapirish ona tilidada esa bolaning yozish va o'g'zaki nutq savodxonligi rivojlantirilishini inobatga olgan holda, bu ikki tilni bir biriga integrallashtirib darslarni tashkil qilish hozirgi davr talablaridan biri hisoblanadi. O'zbek tili va ingliz tili bilan integrallashuvi, o'quv jarayonida o'zbek tilining va ingliz tilining birgalikda foydalanishining o'quvchilarga qanday foyda keltirishini ilmiy va amaliy ravishda o'rganuvchi so'rovchilar va tadqiqotchilar tomonidan muhokama qilingan mavzulardan biridir. Bundan tashqari, bu mavzu xususiy o'qitish metodlari, dars rejalarini tuzish, o'quv materiallarini tayyorlash, talabalarning motivatsiyasini yuqori tutish va boshqa pedagogik asoslar bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
2. Akramjonovna X.L.BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA ONA TILI VA INGLIZ TILLARINI INTEGRATSION METODLAR ASOSIDA O'QITISHNING DIDAKTIK AFZALLIKLARI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 5. – C. 248-253.
3. Akhmedovna, Bakhronova Matluba. "REPRESENTATION OF DISEASES AS SYMBOLS OF SOCIAL ISSUES IN REALISM IN ENGLISH LITERATURE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.05 (2023): 26-29.
4. 12. Akhmedovna, Bakhronova Matluba, and Nesmelova Olga Olegovna. "THE USE OF DISEASES IN THE WORKS OF JACK LONDON." Ustozlar uchun 18.2 (2023): 81-85.
5. Akhmedovna, Bakhronova M. "Life Lessons and Literary Works." International Journal on Integrated Education, vol. 5, no. 6, 2022, pp. 213-217.
6. Uraeva Darmon Saidakhmedovna, and Bakhronova Matluba Akhmedovna. "THE USAGE OF DISEASE NAMES IN LITERATURE AND THEIR DERIVATION". INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, vol. 12, no. 06, June 2023, pp. 21-24, <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1799>.

7. Baxronova Matluba Axmedovna. (2022). BADIY ASARLARGA KO'CHGAN HAYOT SABOQLARI. Conferencea, 401–404. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/640>

8. Baxronova, M. (2021). O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida kasallik turlari va ularning lisoniy tavsifi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 5(5). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2426

9. Bakhronova, M., & Bekmurodova, S. (2023). THE VALUE OF LIFE IN THE SHORT STORY "THE LAST LEAF" BY O'HENRY. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS ", 2(4), 144–147. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1522>

10. <https://interonconf.org/index.php/ind/article/view/11930/10038>

11. Martin Martin J.M. (2001) Nuevas tendencias en el uso de la L1. Universidad Pablo de Olavide , Sevilla.

12. Kavaliauskiene, G. (2009). Role of mother tongue in learning English for specific purposes. Mykolas Romeris University, Vilnius.

13. Shakhnoza S. THE ROLE OF GAMIFICATION IN TEACHING ENGLISH //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 14. – C. 72-77.

14. Shakhnoza S. TO OVERCOME LANGUAGE DIFFICULTIES FOR THE PRIMARY SCHOOLS //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 9. – №. 3. – С. 45-53.

15. Shakhnoza S. THE USE OF MOVIES IN LANGUAGE TEACHING //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 78-83.

16. Shaxnoza, S. . (2023). The Concept of "Dream" in the English and Uzbek Worldwide. Miasto Przyszłości,33, 190–192. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/121>

17. Bakhridinovna S. S. et al. RELATIONSHIP BETWEEN INTENSIVE READING AND FLUENCY //Uzbek Scholar Journal. – 2024. – Т. 26. – С. 27-30.

18. <https://sanako.com/why-are-flashcards-so-popular-in-language-teaching>.